

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12. B. 23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BOTANIKA INSTITUTI

MAMATQOSIMOV ODILBEK TO‘RAYEVICH

**O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *AEGILOPS* L. TURKUMI
TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mamatqosimov Odilbek To‘rayevich

О‘zbekiston florasidagi *Aegilops* L. turkumi turlarining bioekologik xususiyatlari..... 3

Маматқасимов Одилбек Тўраевич

Биоэкологическая особенности рода видов *Aegilops* L. во флоре Узбекистана..... 21

Mamatkasimov Odilbek Turayevich

Bioecological features of the genus of species *Aegilops* L. in the flora of Uzbekistan 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12. B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BOTANIKA INSTITUTI

MAMATQOSIMOV ODILBEK TO‘RAYEVICH

**O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *AEGILOPS* L. TURKUMI TURLARINING
BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1244 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.botany.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduraimov Ozodbek Sultankulovich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Raximova Tashxanim
biologiya fanlari doktori, professor

Usupbayev Adelet Kadirbekovich
biologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12. B. 23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "26" iyun kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (89-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262- 37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "8" Iyun kuni tarqatildi.
(2026-yil "5" Iyun da 28-raqamli reyestr bayonnomasi).



K.Sh. Tojibayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, b.f.d., akademik

A.V. Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy ekosistemalar barqarorligini ta'minlash global miqyosidagi dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Global iqlim o'zgarishi va antropogen omillar ta'sirida biologik xilma-xillik, xususan o'simlik dunyosi resurslarining qisqarishi natijasida oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlar kuchaymoqda. Oziq-ovqat xavfsizligi biologik xilma-xillik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, dunyo miqyosida 6000 dan ortiq o'simlik turi oziq-ovqat uchun yetishtirilishiga qaramay, ularning faqat bir nechtasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli, tabiiy hududlarda tarqalgan muhim xo'jalik va yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega, ayniqsa ozuqabop o'simlik turlarini aniqlash va ularni muhofaza qilishda ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda biologik xilma-xillikning kamayishi hamda demografiyaning o'sib borishi fonida insoniyatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji ortib borishi kuzatilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda dunyo miqyosida 864 million kishi oziq-ovqat yetishmovchiligi va ocharchilik yuzaga kelgan hududlarda yashamoqda (FAO, 2025). Insoniyatning oziq-ovqat ehtiyojini qondirishda yovvoyi donli o'simliklar, xususan *Aegilops* L. (Poaceae) turkumiga mansub turlar bug'doyning kelib chiqishi va genetik resurslari bilan bevosita bog'liqligi sababli seleksiya va bioxilma-xillikni saqlash tadqiqotlarining muhim obyekti sifatida qaraladi. Hozirgacha bug'doyning 10 000 dan ortiq navlari yaratilgan bo'lib, shundan 67 % *Aegilops* turlari genetik resurslari asosida ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, turkum vakillari don ekinlarida stress omillariga chidamlilik bilan bog'liq umumiy genlarning qariyb 25 % ini (75 dan ortiq gen) o'zida saqlash xususiyati bilan ajralib turadi. Bunday sharoitlarda biologik xilma-xillikni saqlash, qurg'oqchilikka va zararkunandalarga chidamli, hosildor tabiiy o'simliklardan navlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda respublikamiz florasida tarqalgan *Aegilops* turlarining bioekologik xususiyatlarini aniqlash hamda tabiiy populyatsiyalar holatini o'rganish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va yangi navlar yaratish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirishda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Hozirda respublikamizda o'simliklar dunyosi bioxilma-xilligini saqlash borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Bu borada, muhim iqtisodiy potensialga ega bo'lgan o'simlik turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son farmonida¹ "Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhit ifloslanishini oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi "2019 - 2028-yillarda O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni

strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi² 484-sonli qarorining 9-bob 20-bandida madaniy o‘simliklar ko‘payishini tiklash maqsadida ularning yovvoyi ajdodlari genofondini saqlashni ta‘minlash hamda madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari har xil populyatsiyalari urug‘lari bankini tashkil etish belgilangan. Dissertatsiya ishida olingan natijalar yuqorida keltirilgan va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Aegilops* turkumi yuqori darajadagi polimorfizmi bilan ajralib turadi. Turkum haqidagi dastlabki ilmiy ma‘lumotlar Teofrastning *Enquiry into Plants* (O‘simliklar haqida tadqiqotlar) asarida keltirilgan. Dastlabki ilmiy tavsiflar K. Linney (1753) tomonidan keltirilgan bo‘lib, hozirgi kunda turkumning 25 turi qayd etilgan (E. Cabi, 2016). Turkumning taksonomiyasi, filogeniyasi va biogeografiyasi bo‘yicha ko‘plab fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Taksonomik jihatdan turkum H.H. Цвелев (1992, 2005), I. Kaya et al. (2011) tomonidan qayta ko‘rib chiqilib, morfologik va sistematik belgilar asosida batafsil tahlil qilingan. Molekulyar filogenetik tuzilishi Д.Г. Антонов (2007), X. Haiou et al. (2022) tomonidan DNK markerlari asosida o‘rganilib, turlardagi evolyutsion bog‘liqliklar aniqlangan. Turlarning geografik tarqalishi M. Kilian et al. (2011), Van Slageren (1994) tomonidan, areal dinamikasi va ekologik moslashish xususiyatlari M. Hedge et al. (2002), M. Zaharieva (2004) tadqiqotlarida tahlil qilingan. Xromosoma soni, poliploidiya darajasi va sitogenetik xususiyatlar P. Elias et al. (2013) tomonidan o‘rganilib, ularning genomik xilma-xilligi va bug‘doyning evolyutsion shakllanishidagi o‘rni aniq ko‘rsatib berilgan.

O‘rta Osiyoda *Aegilops* turkumining ilmiy jihatdan o‘rganilishi XX asrning boshlaridan shakllangan bo‘lib, ushbu tadqiqotlarda Б.А. Федченко (1915), С.А. Невский (1934), В.П. Дробов (1941), Н.Б. Никифорова (1968) va Н.Н. Цвелев (1976) lar turlarning tarkibi, morfologik belgilari va lokal tarqalishini o‘rgangan.

O‘zbekiston florasida turkumning taksonomik va geografik tahlili В.П. Дробов (1941) tomonidan boshlanib, keyingi tadqiqotlarda turkum vakillarining botanik-geografik rayonlarda tarqalishi va geobotanik jihatlari batafsil o‘rganilgan (А.Ж. Ибрагимов, 2010; К.Ш. Тожибаев, 2010, 2021; N.Yu. Beshko, 2022; У.Х. Қодиров, 2020; О.Т. Тургинов, 2017; А.С. Абдураимов, 2021; М.Б. Тиркашева, 2011; Л.А. Ботирова, 2012; И.Т. Азимов, 2018; Г.М. Ходжаева, 2008). So‘nggi yillarda turkum vakillarining ayrim ekologik sharoitlardagi fenologiyasi va bioekologik xususiyatlari borasida ham tadqiqotlar amalga oshirilgan (А.А. Imirsinova, 2025; M. Kurbanova et al., 2023).

Yuqoridagi tadqiqotlar O‘zbekiston florasidagi *Aegilops* turlarining bioekologik xususiyatlarini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli turkum vakillarining

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi VMQ-484-son “2019-2028-yillarda O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori.

floradagi tarqalishi, senopopulyatsiyalarining zamonaviy holati, ontogenez bosqichlari va hayotiy strategiyalari tahlili alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Botanika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Madaniy o‘simliklarning O‘zbekiston florasidagi alohida xo‘jalik ahamiyatiga ega yovvoyi ajdodlari populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash va tirik kolleksiyasini yaratish” (2021-2024) mavzusidagi davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekiston florasida tarqalgan *Aegilops* turkumi turlarining bioekologik xususiyatlarini aniqlash hamda populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Aegilops turlarining ekologik-fitosenotik xususiyatlarini aniqlash;
turlarning tabiiy sharoitdagi ontogenez davr va bosqichlarini tavsiflash;
turlarning tabiiy fitotsenozlardagi urug‘ banki va urug‘ mahsuldorligini baholash;

morfometrik ko‘rsatkichlar asosida senopopulyatsiyalarning vitalitet strukturasi aniqlash va turlarning hayotiy strategiyalarini tahlil qilish;

A. cylindrica misolida xromosoma tiplari, ularning tuzilishi hamda karyologik xususiyatlarini aniqlash;

A. juvenalis ning potensial tarqalish maydonlarini bioiqlimiy modellashtirish.

Tadqiqotning obykti O‘zbekiston florasidagi *Aegilops* turkumining *Aegilops cylindrica* Host, *A. crassa* Boiss.ex Hohen., *A. tauschii* Coss., *A. triuncialis* L., *A. juvenalis* (Thell.) Eig. turlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. *Aegilops* turkumiga mansub turlarning morfologik va ekologik xususiyatlari, turli eko-fitotsenotik sharoitlarda tarqalgan senopopulyatsiyalarining strukturaviy-dinamik ko‘rsatkichlari, tabiiy sharoitda ontogenez davr va bosqichlari, xromosomalar tahlili hamda iqlim omillari ta’sirida bioiqlimiy modellashtirilishi hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya tadqiqotlari davomida dala, geobotanik, fitosenotik, populyatsion, biometrik, sitologik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O‘zbekiston florasida tarqalgan *Aegilops* turkumi turlarining turli ekologik-fitotsenotik sharoitlarda tarqalgan *Aegilops* turkumiga mansub 5 turning 23 ta senopopulyatsiyasi kompleks ekologik-fitotsenotik tahlili amalga oshirilgan;

ilk bor O‘zbekiston florasida uchun *Aegilops tauschii* Coss. ning yangi o‘sinh nuqtalari aniqlangan va populyatsiyalarining zamonaviy holati baholangan;

Aegilops turlarining tabiiy sharoitda ontogenez davr va bosqichlari ochib berilgan;

turlarning fitotsenozlardagi urug‘ banki tabiiy sharoitda qisqa muddatli va o‘rtacha barqaror tipga xos ekanligi aniqlangan;

ishonchlilik darajasi yuqori bo‘lgan organizm belgilarini tahlil qilish asosida senopopulyatsiyalarning vitalitet holati baholangan;

morfometrik ko‘rsatkichlar asosida turlarning hayotiy strategiyalari aniqlangan hamda ularga ta’sir etuvchi omillar asoslangan;

seleksion potentsiali yuqori bo'lgan *A. cylindrica* ning xromosoma ko'rsatkichlarining kompleks tahlili asosida, tur genetik barqarorligini va D genomiga tegishli xromosomalarni aniq identifikatsiya qilish imkoniyati yaratilgan;

A. juvenalis turining potensial areali turli vaqt davrlari uchun bioiqlimiy o'zgaruvchilar to'plami asosida modellashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot obyektlarining senopopulyatsiyalarining tarqalishi va vitalitet holatini aks ettiruvchi GAT (Geografik Axborot Tizimi) xaritalari yaratilgan;

O'zbekiston florasidagi *Aegilops* turlarining zamonaviy konspekti, turlarning botanik-geografik rayonlarda tarqalishi bo'yicha GAT xaritalari "O'zbekiston florasini" ning Poaceae oilasiga bag'ishlangan navbatdagi nashriga taqdim etilgan;

Turkum vakillarining 500 ta gerbariy na'munasi asosida tuzilgan ma'lumotlar bazasi bioxilma-xillik bo'yicha ma'lumotlarning global tizimi GBIF (Global Biodiversity Information Facility, www.gbif.org) ga integratsiya qilingan hamda dala tadqiqotlari davomida yig'ilgan o'simlik gerbariy namunalari O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondini boyitish imkonini bergan;

A. cylindrica namunalari ustida amalga oshirilgan xromosoma tahlili populyatsiyalarning genetik tuzilishini aniqlashga va seleksiya yo'nalishidagi kelgusidagi tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyada qo'llanilgan zamonaviy usullar hamda ilmiy yondoshuvlar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, natijalarning nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarning O'zbekiston florasining yangi nashriga tavsiya etilganligi, shuningdek tadqiqot ishida O'zbekiston Milliy gerbariysi (TASH), Moskva davlat universiteti gerbariysi (MW), Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Botanika instituti (LE) kabi yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalardan foydalanilganligi va dissertatsiya ishining davlat ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida bajarilganligi, dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, O'zbekistonda tarqalgan *Aegilops* turkumi turlari senopopulyatsiyalarining aniq maqsadga yo'naltirilgan holda baholanganligi, turlarning ontogenez bosqichlari to'liq ochib berilganligi, senopopulyatsiyalarning vitalitet strukturasi va turlarning hayotiy strategiyalari tavsiflanganligi, iqlim ssenariylari asosida tarqalish maydonlarining bioiqlimiy modellashtirilganligi hamda xromosoma xillari, tuzilishi va karyologik xususiyatlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turkum turlarini senopopulyatsiyalarining tarqalishi hamda ularning zamonaviy holatini aks ettiruvchi xaritalarni tuzilganligi, uzoq muddatli monitoring tadqiqotlarini olib borishda birlamchi manba sifatida xizmat qilishi, "O'zbekiston florasini" ning yangi nashrlarini tayyorlash, ma'lumotlar bazasini yaratish, ularni xalqaro bazalarga integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston florasidagi *Aegilops L.* turlarining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekistonning turli botanik-geografik rayonlaridan turkumning 4 turi ishtirokidagi 395 ta gerbariy namunalari va ularga tegishli ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 27-fevraldagi № 4/1255-501-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, turlarning yangi gerbariy namunalari TASH fondining O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasini boyitishga, turlarning geografiyasi va populyatsiyalari holati bo‘yicha olingan ma’lumotlar hamda turlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari O‘zbekiston florasining elektron ma’lumotlar bazasi axborot- tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan.

Turlar ishtirokida O‘zbekiston florasidan yig‘ilgan 500 ta gerbariy namunalari bo‘yicha geobog‘langan ma’lumotlar bazasi Global bioxilma-xillik ma’lumotlar tizimi (GBIF) ga joriy etilgan (GBIF, www.gbif.org, 2025-yil 18-apreldagi № 036-sonli sertifikat). Natijada, GBIF portalining turkum vakillari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini boyitish, turlarini geografik, taksonomik va ekologik jihatdan o‘rganish hamda xalqaro miqyosda tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy (Scopus va WOS bazalarida indekslangan) jurnallarda hamda 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy - amaliy anjumanlarida tezislar nashr etilgan, 1 ta ma’lumotlar bazasi uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «*Aegilops L.* turkumi turlarining madaniy o‘simliklar ajdodi sifatidagi ahamiyati va tarqalishi» deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limida *Aegilops* turkumi vakillarining madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari sifatida oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati, ularning tarqalish areallari, turkum turlari borasida olib borilgan tadqiqotlar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Aegilops turkumiga oid tadqiqotlarning aksariyati floristik va geobotanik yoʻnalishlarda olib borilgan boʻlib, turlarning bioekologik xususiyatlari hamda populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholashga qaratilgan maqsadli tadqiqotlar Oʻzbekistonda amalga oshirilmagan.

Bobning ikkinchi boʻlimida tadqiqot obyekti va metodlari boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan. Tadqiqot obyektlari: *Cylindropyron* seksiyasidan *Aegilops cylindrica*, *Vertebrata* seksiyasidan *A. juvenalis*, *A. crassa*, *A. tauschii*, *Aegilops* seksiyasidan *A. triuncialis* hisoblanadi (M. Feldman, A.A. Levy, 2023). Ontogenez bosqichlari A.A. Uranov va boshqalar (1976, 1988) hamda urugʻlarning unuvchanligi M.K. Firsova (1959) tomonidan taklif etilgan metod yordamida aniqlangan. Senopopulyatsiyalarning vitalitet indeksi (IVC) A.R. Ishbirdin, M.M. Ishmuratova (2004), vitalitet strukturasi B.Г. Кыяк (2014), Y. Zlobin (2021), urugʻ mahsuldorligi va urugʻ zahiralari aniqlashda A. Петров, E. Смирнова (2025), xromosomalar tahlili G. Mirzaghaderi et al. (2015) tomonidan tavsiya etilgan metodlardan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «*Aegilops* L. turkumi turlarining ekologik-fitotsenotik tavsifi» deb nomlangan. Tadqiqotlar natijasida *Aegilops* turkumi vakillari ishtirokida respublika hududida jami 23 ta senopopulyatsiya ajratilgan va ekologik-fitotsenotik xususiyatlari kompleks tahlil qilingan (1-rasm).




1-rasm. *Aegilops* turkumi turlarining ajratilgan senopopulyatsiyalari

Turkum vakillari dengiz sathidan 400–2100 m balandlik oraligʻidagi turli fitotsenozlar tarkibida uchrashi aniqlanib, ularning tarqalish areali choʻl, togʻoldi va oʻrta togʻ mintaqalarigacha boʻlgan keng ekologik gradientni qamrab oladi. Bu koʻrsatkichlar ularning yuqori ekologik plastikligi va turli fitotsenotik sharoitlarga moslashuvchanligini tasdiqlaydi. Oʻzbekiston florasida *Aegilops* turlarining jamoadagi ulushi odatda 1–3 % ni tashkil etib, ular asosan ikkilamchi komponent sifatida ishtirok etadi. Bu holat ularning senotik oʻrni passiv-reaktiv xarakterga ega ekanligini koʻrsatadi hamda O.V. Smirnova (1987) klassifikatsiyasiga muvofiq

reaktiv turlar guruhiga mansubligini tasdiqlaydi. *Aegilops* vakillari fitotsenoz strukturasi belgilovchi dominant emas, balki ekologik sharoit o'zgarishlariga tez javob beruvchi indikator komponent sifatida namoyon bo'ladi.

Bir yillik o'simliklar populyatsiyalarining iqlim omillari, tuproq namligi dinamikasi va antropogen bosimga nisbatan yuqori sezgirlikni inobatga olgan holda, *Aegilops cylindrica* ishtirokidagi jamoalar floristik o'xshashligi Sørensen indeksi asosida qiyosiy tahlil qilindi. Olingan indeks qiymatlari senopopulyatsiyalarni past, o'rta, yuqori va juda yuqori o'xshashlik guruhlariga ajratish imkonini berdi hamda hududiy differensiallashuv darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Jamoalar o'rtasidagi umumiy turlar sonining 4 tadan 14 tagacha o'zgarishi floristik tarkibning mozaik xarakterga ega ekanligi va ekologik gradientlar ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. *A. cylindrica* senopopulyatsiyalarining Sørensen o'xshashlik indeksi ko'rsatkichlari (SP – senopopulyatsiyalar; UTS – umumiy turlar soni; S-indeks – o'xshash turlar)

A. cylindrica senopopulyatsiyalarining turlar xilma-xilligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Turkiston tizmasida (2092 m) qayd etilib, 41 turdan iborat har xil o'tli-qashqarbedazor jamoasi eng boy fitotsenoz sifatida ajralib turadi. Ko'hitang (1518 m) va Tyon-Shon (1511 m) hududlarida esa 25–26 turdan iborat jamoalar ikkinchi guruhni shakllantirdi. Balandlikning pasayishi bilan tur xilma-xilligining kamayish tendensiyasi kuzatildi, bu esa balandlik gradienti va mikroiklim omillarining fitotsenoz tuzilishiga bevosita ta'sirini tasdiqlaydi. *Plants of the World Online* ma'lumotlariga ko'ra, *A. cylindrica* yuqori darajadagi polimorfizm bilan tavsiflanib, 40 ga yaqin sinonim va variatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Fitogeografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'rta Yer dengizi–G'arbiy Osiyo mintaqasida *Aegilops* turkumi eng yuqori tur xilma-xilligi va tarqalish zichligi bilan tavsiflanadi. Mazkur hududda hozirgi kunda ma'lum bo'lgan taxminan 23 ta turdan 11–17 tasi jamlangan. Aynan shu mintaqada *Aegilops* turkumining dastlabki tur hosil bo'lish jarayonlari hamda evolyutsion radiatsiyasi kechganligi taxmin qilinadi (Feldman, Levy, 2023). O'zbekistonda Chotqol, Qurama, Shimoliy Turkiston, Hisor, Zarafshon, Ko'hitang, Boysun, Nurota va Bobotog' tizmalari bo'ylab tarqalgan.

Deyarli barcha jamoalarda *Poa annua*, *Capsella bursa-pastoris*, *Plantago major*, *Taraxacum officinale*, *Chenopodium album*, *Polygonum aviculare*, *Artemisia vulgaris*, *Bromus tectorum*, *Ixiolirion tataricum*, *Elymus repens*, *Xanthium spinosum*, *Centaurea solstitialis* keng tarqalgan va evritop turlar turli mo'llik darajasida uchradi. Ushbu turlar mavjudligi fitosenozlarda antropogen va tabiiy omillarga chidamli komponentlar ustunligini ko'rsatadi. Qolgan turlar bo'yicha ma'lumotlar dissertatsiyada batafsil keltirilgan.

Dissertatsiyaning «***Aegilops* L. turkumi turlarining ontogenez davr va bosqichlari**» deb nomlangan uchinchi bobida o'rganilgan obyektlarning ontogenez davr va bosqichlari yoritilgan. Turlarning ontogenezi to'liq bo'lib 3 davrdan (latent, virginil, generativ) iborat, virginil davri 4 bosqichni (*p*-maysa, *j*-yuvencil, *im*- immatur, *v*-virginil) o'z ichiga oladi. Turkum vakillarining barchasi bir yillik hayotiy shaklga ega hisoblanadi. Bir yillik o'simliklarning ontogenezi qisqa muddatli, yuqori plastiklikka ega va ekologik omillarga juda sezgir bo'lishi bilan ko'p yilliklardan tubdan farq qiladi. *Aegilops* turkumi vakillarining ontogenezi qisqa vegetatsiya davrida yakunlanadigan tezkor rivojlanish sikli (bahor-yoz) bilan tavsiflanadi.

Latent davrida o'simlik birlamchi tinim holatida bo'lib, don ko'rinishida bo'ladi. Turkum vakillarida meva qobig'i nisbatan zich bo'lib, urug'ning mexanik himoyasini ta'minlaydi hamda namlik va harorat tebranishlariga chidamliligini oshiradi. Bu xususiyat O'rta Osiyoning keskin kontinental sharoitlarida reaktiv ekologik strategiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Turlarning mevalari to'q jigarrang, cho'zilgan tuxumsimon shaklda, yupqa oq parda bilan qoplangan bo'ladi. Unda markaziy chiziq aniq ko'rinishda bo'lib, uzunligi 0,6–1,5 sm, eni 0,2–0,8 smni tashkil qiladi. 1000 dona urug' massasi 6–10 g. Urug' hajmining asosiy qismini kraxmalga boy endosperm egallaydi. Murtakning shakli seksiyalar bo'yicha farqlanib, *Cylindropyron* seksiyasida spiralsimon, *Vertebrata* va *Aegilops* seksiyalarida esa ipsimon bo'ladi.

Virginil davri maysa, yuvencil, immatur va virginil bosqichlarini o'z ichiga oladi. ***Maysa bosqichi* (*p*)**. Tabiiy sharoitda odatda mart oyining birinchi dekadasida boshlanadi. Tuproq namligi va harorat rejimi maysa bosqichining boshlanishini belgilovchi asosiy ekologik omillar hisoblanadi. Unib chiqish gipogeal. Murtak tuproq orqali o'sib chiqish jarayonida uni himoya qiluvchi koleoptil ichida rivojlanib, unda ipsimon urug'pallabarg va birlamchi ildiz shakllanadi. Dastlab asosiy ildiz qisqa muddat faol bo'lib, tez orada 2–3 ta yon ildizchalarning rivojlanishi kuzatiladi (2–5 sm). Turkum vakillarida gipokotildan qo'shimcha ildizlarning hosil bo'lishi natijasida popuk ildiz tizimi shakllanadi va

bu tizim qisqa muddatda tuproqning ustki qatlamlaridagi namlik hamda oziqa moddalarning intensiv o'zlashtirilishini ta'minlaydi O'simlikning umumiy uzunligi 8–12 sm atrofida. Maysa bosqichining davomiyligi turlar kesimida 7–12 kunni (*A. cylindrica* — 7–10 kun; *A. crassa* — 8–12 kun; *A. tauschii* — 9–11 kun; *A. juvenalis* va *A. triuncialis* — 10–12 kun) tashkil etadi.

Yuvenil bosqich (j). Ontogenezning yuvenil bosqichida poya asosida joylashgan apikal meristema faollashadi. Mart oyining ikkinchi dekadasida birinchi haqiqiy bargning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Barglar tasmaimon, tomirlanishi parallel yoki yoysimon, bandsiz, barg yaprog'i va qinidan iborat bo'ladi. Oziqlanish to'liq avtotrof tipga o'tadi, don bilan aloqa uziladi. Ildiz tizimi jadallik bilan rivojlanib, poya ortotrop o'sadi. Bosqichning davomiyligi *Cylindropyron* vakillarida 15–18 kun, *Vertebrata* va *Aegilops* seksiyalarida 17–25 kunni tashkil etadi.

Immatur bosqich (im). Aprel oyining birinchi dekadasidan boshlanadi. Asosiy novdaning bazal qismida tuplanish kuzatiladi va monopodial o'sish xususiyatiga ega yon o'qlar hosil bo'ladi. Tuplanish tugunidan uzunligi 1 sm bo'lgan naycha shaklida o'ralgan barg paydo bo'ladi. Ikkilamchi novdada 3–5 ta tasmaimon barglar shakllanadi. Yon tarmoqlanishning yuzaga kelishi donli o'simliklarning immatur bosqichiga o'tishini ifodalovchi diagnostik belgi hisoblanadi. Ildiz tizimida ikkinchi tartib ildizchalar hosil bo'lib, asosiy ildizning uzunligi 5-8 sm ga yetadi. Bosqichning davomiyligi seksiyalar kesimiga ko'ra 12-20 kun davom etadi.

Virginil bosqich (v). Bu bosqich aprel oyining uchinchi dekadasida, tog'li sharoitda esa may oyining birinchi dekadasida boshlanadi. Bu bosqichda boshhoqsimon bo'rtmalarni shakllanishi va bo'g'im oraliqlar o'lchamining ortishi kuzatiladi. Barglarning abaksial yuzasida mayda tukchalar paydo bo'ladi. Tarmoqlanish yanada rivojlanib, qo'shimcha ildizdagi kurtaklar faoliyati natijasida 4–5 ta vegetativ poya shakllanadi hamda intensiv o'sishi kuzatiladi. Turkum vakillarining popuk ildiz tizimi murakkablashib borib, ularning uzunligi 7,4-10,2 smga yetadi. Morfometrik ko'rsatkichlar seksiyalar bo'yicha farqlanib, o'simlik bo'yi 17–32 sm hamda barglarning uzunligi 10–14 sm ni tashkil qiladi. Virginil davrning umumiy davomiyligi 50–80 kun atrofida bo'lib, bu ko'rsatkich bevosita ekologik sharoitga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi.

Generativ davr (g). May oyining birinchi dekadasida boshlanib, ontogenezning asosiy funksional cho'qqisi hisoblanadi. Boshhoqning shakllanishi, gullash va changlanish jarayonlari qisqa muddat ichida sodir bo'ladi. May oyining boshlarida 2-9 ta gulni o'z ichiga olgan boshhoqchalar shakllanadi. Gullash davrida poyaning eng yuqori bo'g'im oralig'i jadal o'sib uzunligi 3-9 sm ga yetadi. Poya va barglarning o'sish intensivligi pasayadi, poyaning apikal qismi reproduktiv holatga o'tadi hamda "murakkab boshq" tipidagi to'pgul shakllanadi. Bir tup o'simlikdagi boshhoqlar sonida farqlar mavjud: 1-3 ta (*A. crassa*, *A. tauschii*) 5-7 tagacha (*A. cylindrica*, *A. juvenalis*, *A. triuncialis*). Donlar to'liq pishib yetilgach 22-29 kungacha poyada saqlanib turadi. Generativ davrning davomiyligi *Cylindropyron* seksiyasi vakillarida 38-46 kun, *Vertebrata* seksiyasi vakillarida 31-39 kun, *Aegilops* seksiyasi vakillarida esa 28-39 kun davom etadi. Turkum

turlarining bir-biridan farqlovchi asosiy morfologik va sistematik belgilari boshog shakli, boshogchalar soni va qiltanoqning rivojlanish darajasi hisoblanadi (3-rasm).




3-rasm. *Aegilops* turlari boshoglarining tuzilishi:

(A– *A. cylindrica*, B– *A. crassa*, C– *A. tauschii*, D– *A. triuncialis*, E– *A. juvenalis*)

Xususan *A. cylindrica* – boshog‘i silindsimon, qiltanoqlar juda qisqa yoki rivojlanmagan; *A. crassa* – boshog‘i qisqa va yo‘g‘on, mayda tukchali; *A. tauschii* – boshog‘i ingichka, qiltanoqlar nisbatan uzun; *A. triuncialis* - yassi boshog va ko‘p qiltanoqli boshogchalar; *A. juvenalis* da esa zich, kalta boshog va qisqa qiltanoqlar kuzatiladi. Har bir boshogda 2 tadan 8 tagacha don shakllanadi.

Turkum vakillarining umumiy ontogenez davomiyligi 90-140 kunni tashkil qiladi (4-rasm).




4-rasm. *A. cylindrica* ontogenez davrlari

Izoh: *p* – maysa, *j* – yuvenil, *im* – immatur, *v* – virginil, *g* – generativ *b* – 1 ta boshogning umumiy ko‘rinishi. 1-koleoptil; 2-don; 3-urug‘pallabarg; 4-I- tartibli ildizlar; 5-vegetativ poya; 6-haqiqiy burglar; 7-barg g‘ilofi (qini); 8-II-tartibli ildizlar; 9-generativ poya; 10-boshog; 11-yon qipiq; 12- boshog uchki qipig‘i.

Bobning ikkinchi bo‘limida *Aegilops* turkumi vakillarining fitotsenozdagi urug‘ zahirasi va reproduktiv potentsiali bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Bir yillik o‘simliklar populyatsiyalarining barqarorligi va tiklanish strategiyasini baholashda tuplar zichligi, biomassa hamda tuproqdagi urug‘ zahiralari asosiy demoekologik ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida *Aegilops* turkumi vakillarida urug‘larning asosiy qismi tuproqning 0,5–2,2 sm ustki qatlamida to‘planishi, 2,5–4,5 sm qatlamda ularning miqdori keskin kamayishi hamda 5,0 sm dan chuqur qatlamlarda esa juda kam uchraydi. Urug‘larning chuqur qatlamlarga tushishi asosan antropogen omillar (shudgorlash), eroziya va zoogen ta’sir bilan bog‘liq.

Poaceae vakillariga xos ravishda *Aegilops* turlarida ham tuproq urug‘ banki qisqa yoki o‘rtacha muddatli tipga mansub bo‘lib, urug‘larning tabiiy sharoitda unuvchanligi odatda 1–3 yil davomida saqlanadi (Humphries & Florentine, 2022). Shunga ko‘ra, populyatsiyalar barqarorligi asosan yillik urug‘ mahsuldorligi va muntazam generativ tiklanish jarayoni hisobiga ta‘minlanadi. Reproaktiv potentsial ko‘rsatkichlari turlar kesimida *A. triuncialis* da potentsial urug‘ mahsuldorligi 3–6 dona, *A. tauschii* da 7–11 dona farqlar bilan tashkil etadi. Haqiqiy urug‘ mahsuldorligi 3–8 dona oralig‘ida bo‘lib, mahsuldorlik koeffitsienti 67 % dan (*A. triuncialis*) 80 % gacha (*A. cylindrica*) o‘zgarishi qayd etildi. 1 m² maydondagi tup zichligi 9 tupdan (*A. juvenalis*) 17–18 tupgacha (*A. triuncialis*, *A. tauschii*) o‘zgarib, 1 m² dagi umumiy biomassa 27–85 g diapazonda qayd etildi. (5-rasm).




5-rasm. Tuplar biomassasi, populyatsiya zichligi va urug‘ mahsuldorligi

Aegilops turkumi vakillarida urug‘ banki va generativ mahsuldorlik populyatsiya barqarorligini ta‘minlovchi asosiy mexanizm hamda ularning tiklanish strategiyasi esa qisqa muddatli urug‘ zahirasi va yuqori yillik reproduktiv

samaradorlikka asoslangan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "Senopulyatsiyalarning vitalitet strukturasi va turlarning hayotiy strategiyasi" deb nomlangan. Bobning birinchi bo'limida *Aegilops* turkumi turlari senopulyatsiyalarining vitalitet strukturasi kompleks tahlil qilinib, ular Q mezonlari asosida (Zlobin, 2021) baholangan. Vitalitetni aniqlashda o'simlik bo'yi (H), biomassa (W), boshoq uzunligi (hfl), boshoq massasi (W_{sm}), boshoqdagi urug'lar soni (N_{fr}), barg uzunligi (L_{fol}), barg eni (Wh_{fol}) va ildiz uzunligi (L_{rd}) kabi yuqori ishonchlilik darajasiga ega morfometrik belgilar mezon sifatida tanlandi. Belgilarning variatsiyasi asosida senopulyatsiyalar vitaliteti yuqori (a), o'rtacha (b) va past (c) kategoriyalarga ajratildi (6-rasm).

A. cylindrica ishtirokidagi SP-1 va SP-4 senopulyatsiyalari morfometrik ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlik ko'rsatib, gullab-yashnayotgan tipga mansubligi aniqlandi. Ularning 1500–2000 m balandliklarda, nisbatan unumdor va namlik yetarli sharoitlarda joylashgani yuqori hayotiy salohiyatni ta'minlagan. SP-2 va SP-3 populyatsiyalari o'rtacha vitalitet ko'rsatkichlari bilan muvozanatli tipni namoyon etdi. SP-5 esa minimal morfometrik qiymatlar bilan depressiv holatni ifodalab, 1017 m balandlikda, past unumdorlik va antropogen bosim (sanoat ta'siri) sharoitida shakllangani bilan izohlanadi. O'rganilgan senopulyatsiyalar gullab-yashnayotgan (40%), muvozanatdagi (30 %) va depressiv (30 %) tipga mansub ekanligi qayd etildi. IVC ko'rsatkichlari gullab-yashnayotgan populyatsiyalarda 1,04–1,41, muvozanatli tiplarda 0,99–1,01, depressiv tiplarda esa 0,75–0,91 oralig'ida bo'ldi. Eng yuqori balandlik va biomassa ko'rsatkichlari *A. crassa* va *A. cylindrica* da, eng past qiymatlar esa *A. tauschii*, *A. triuncialis* da kuzatildi.



6-rasm. *A. cylindrica* morfologik belgilarning o'zgaruvchanligi

Natijalar shuni ko'rsatdiki, *Aegilops* vakillari ekologik jihatdan kseromezofit guruhga mansub bo'lib, erta bahorgi namlikdan samarali foydalanish sharoitida yuqori vitalitet namoyon etadi, qurg'oqchil va stress omillari kuchli hududlarda esa vitalitet pasayib, senopopulyatsiyalar depressiv tipga o'tadi. Bu esa turkum vakillarining ekologik sharoitlarga sezgir, ammo moslashuvchan strategiyaga ega ekanligini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval

Aegilops turkumi turlari senopopulyatsiyalarining yashovchanligi va vitalitet tiplari


Tur nomi	№ SP	Vitalitet sinfi bo'yicha tuplar ulushu, %			IVC	IQ = (a+b)/2c	Q	Vitalitet tiplari
		a	b	c				
<i>A. cylindrica</i>	1	48,1	26,1	25,8	1,13	1,43	0,41	Gullab yashnayotgan
	2	32,1	46,3	21,5	0,99	1,82	0,35	Muvozanatdagi
	3	26,6	47,4	26	1,01	1,42	0,33	Muvozanatdagi
	4	47,4	21,1	31,6	1,04	1,08	0,40	Gullab yashnayotgan
	5	33,3	30,0	36,7	0,77	0,86	0,29	Depressiv
<i>A. crassa</i>	6	27,3	45,2	27,5	1,03	1,26	0,33	Muvozanatdagi
	7	46,7	33,3	20,0	1,19	2,00	0,40	Gullab yashnayotgan
	8	38,1	17,5	44,4	0,91	0,62	0,31	Depressiv
	9	42,2	33,6	24,2	1,41	1,56	0,45	Gullab yashnayotgan
	10	33,4	25,6	41	0,81	0,71	0,31	Depressiv
<i>A. tauschii</i>	11	31,9	22,5	45,6	0,79	0,59	0,27	Depressiv
	12	44,1	29,3	26,6	1,38	1,37	0,49	Gullab yashnayotgan
	13	39,3	34,2	26,5	1,29	1,38	0,40	Gullab yashnayotgan
	14	24,8	29,3	45,9	0,91	0,59	0,30	Depressiv
<i>A. triuncialis</i>	15	45,2	25,4	29,4	1,33	1,20	0,39	Gullab yashnayotgan
	16	31,1	45,6	23,3	0,99	1,64	0,36	Muvozanatdagi
	17	23,7	51,5	24,8	1,09	1,52	0,34	Muvozanatdagi
	18	39,9	32,8	27,3	1,44	1,33	0,47	Gullab yashnayotgan
	19	26,2	49,1	24,7	1,01	1,52	0,34	Muvozanatdagi
<i>A. juvenalis</i>	20	68	21	11	1,16	4,04	0,41	Gullab yashnayotgan
	21	30,0	36,7	33,3	1,01	1,00	0,34	Muvozanatdagi
	22	26,7	36,7	36,7	0,80	0,86	0,28	Depressiv
	23	33,3	30,0	36,7	0,75	0,86	0,25	Depressiv

Izoh: SP – Senopopulyatsiya; IVC – Senopopulyatsiya vitalitet indeksi; IQ – Vitalitet sinflarining o'zaro nisbati; Q – Senopopulyatsiyaning vitalitet tipini baholovchi mezon.

Bobning ikkinchi bo'limida *Aegilops* L. turkumi turlarining hayotiy strategiyalari Ramenskiy–Grime (C–S–R) bo'yicha kompleks baholangan. Natijalar turlar strategik jihatdan turlicha ekologik yo'nalishga ega ekanligini ko'rsatgan.

A. tauschii ruderal (R) strategiyali tur sifatida qisqa ontogenez va yuqori urug' berish qobiliyati bilan degradatsiyalashgan hamda buzilgan hududlarda tez kolonizatsiya qilish xususiyatiga ega. *A. crassa* C–R oralig'ida joylashgan bo'lib, nisbatan barqaror, ammo antropogen bosim mavjud agroekotizimlarda samarali rivojlanadi. *A. cylindrica* R–S strategiyaga ega bo'lib, ruderal xususiyatlar bilan bir qatorda qurg'oqchilik va edafik stress omillariga chidamlilikni namoyon etadi. *A. triuncialis* C–S–R uchburchagi doirasida aralash strategiyali generalist tur sifatida keng ekologik amplitudaga ega va turli sharoitlarda barqaror


populyatsiyalar hosil qiladi. *A. juvenalis* esa C-strategiyaga yaqin joylashgan bo‘lsa-da, S va R komponentlari bilan uyg‘unlashgan aralash tipni namoyon etadi (7-rasm).



7-rasm. *Aegilops* turkumi turlarining hayotiy strategiyalari (Grime uchburchagi)

Dissertatsiyaning beshinchi bobi “***Aegilops* turkumi ayrim vakillarining sitogenetik va populyatsion-ekologik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limida seleksiya amaliyotida keng qo‘llaniladigan, ozuqa va iqtisodiy qiymati yuqori bo‘lgan *Aegilops cylindrica* misolida sitogenetik tahlillar amalga oshirildi. Ushbu tur allotetraploid bo‘lib, somatik xromosoma soni $2n = 4x = 28$ ni tashkil etadi va C^c hamda D^c genomlari kombinatsiyasidan iborat. Metafaza bosqichidagi somatik hujayralarda 14 juft xromosoma ($x = 7$) aniqlanib, ularning morfologik xususiyatlari asosida karyotip tavsifi tuzildi. Karyotip nisbatan simmetrik bo‘lib, 10 juft submetatsentrik va 4 juft metatsentrik xromosomalardan tashkil topgan, subtelotsentrik shakllar kuzatilmadi. Mazkur sitologik belgilar turning genetik barqarorligini hamda seleksiya jarayonida genom komponentlarini aniq identifikatsiya qilish imkonini beradi.

Bobning ikkinchi bo‘limi *A. juvenalis* ning potensial tarqalish arealini bioiqlimiy modellashtirishga bag‘ishlandi. Model natijalari turning hozirgi davrda O‘rta Osiyo hududining atigi 4,98 % qismida ekologik jihatdan qulay sharoitga ega ekanligini ko‘rsatdi, bu esa uning tor ekologik amplitudaga egaligini tasdiqlaydi. Eng muhim bioiqlimiy omil sifatida eng sovuq chorakning o‘rtacha haroratini ifodalovchi BIO11 (22,2 %) ajralib turadi, bu turning qishki harorat rejimiga sezgirligini ko‘rsatadi. Shuningdek, yillik harorat amplitudasi (BIO7 – 11,6 %), relyef qiyaligi (10,9 %) va balandlik (8,9 %) omillari ekologik nishaning shakllanishida muhim determinant sifatida namoyon bo‘ldi. Bashoratlashtirish modellariga ko‘ra, 2050 va 2070 yillarda iqlim o‘zgarishi ssenariylarida turning potensial areali qisqarishi yoki fragmentatsiyalanishi mumkin, bu esa populyatsiyalarning saqlanib qolish strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi (8-rasm).



8-rasm. *A. juvenalis* populyatsiyalarining tarqalishida ekologik omillar tasirining ulushi

XULOSALAR

“O‘zbekiston florasidagi *Aegilops* L. turkumi turlarining bioekologik xususiyatlari” mavzusidagi biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. O‘rganilgan fitotsenozlarda *Aegilops* turkumiga mansub turlar assektor sifatida namoyon bo‘lib, keng ekologik diapazonga ega hamda dengiz sathidan 400–2100 m balandliklarda tarqalgan. Mazkur turkum vakillari ishtirok etgan jamoalarning floristik o‘xshashlik darajasi Sørensen indeksi asosida aniqlanib, u jamoalarning tur boyligi, fitotsenozlarning payhonlanish darajasi hamda ularning tarqalishidagi ekologik sharoitlarga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. *Aegilops* turlari fitotsenoz tuzilmasini belgilovchi dominantlar sifatida emas, balki ekologik sharoitlardagi o‘zgarishlarga tezkor javob beruvchi indikator komponentlar sifatida namoyon bo‘ladi.

2. *Aegilops* turkumiga mansub turlar o‘tsimon, bir yillik o‘simliklar bo‘lib, popuk ildiz tizimiga ega; monokarpik, monosiklik generativ novdalarga hamda monopodial o‘sish tipiga ega yon shoxlanishlarga ega. Ontogenezi oddiy, to‘liq va qisqa bo‘lib, generativ davr bilan yakunlanadi. Turlar uchun ontogenezning uzoq davom etuvchi pregenerativ va qisqargan generativ davrlari hosdir.

3. *Aegilops* turkumi vakillari populyatsiyalarining barqarorligini belgilovchi urug‘ banki, fitotsenozlarda qisqa muddatli yoki o‘rtacha barqaror tipga xos. Urug‘larning asosiy qismi tuproqning 0,5–2,2 sm yuza qatlamida to‘plangan bo‘lib, ularning miqdori chuqurroq qatlamlarda keskin kamayadi. Reproduktiv ko‘rsatkichlar turga qarab farqlanib, potensial urug‘ mahsuldorligi *A. triuncialis* 3–6 dona, *A. tauschii* 7–11 donani tashkil etadi. Haqiqiy urug‘ mahsuldorligi 3–8

dona oralig'ida bo'lib, eng yuqori mahsuldorlik koeffitsiyenti *A. cylindrica* (80%) qayd etildi.

4. *Aegilops* turkumi senopopulyatsiyalarining vitalitet strukturasi kompleks tahlili, ularning funksional holati vitalitet sinflariga bog'liq holda yaqqol differensiyalashganini ko'rsatadi. O'rganilgan senopopulyatsiyalarning 70% ekologik optimum sharoitida shakllangan barqaror tipga xos, ularda yuqori (a) va o'rta (b) vitalitet darajasidagi individlar ustunlik qiladi. Vitalitet o'zgaruvchanligi indeksi diapazoni ($IVC=0,99-1,44$) va sifat indeksi (IQ) ning yuqori ko'rsatkichlari, morfofunktsional muvozanat, reproduktiv harakatchanlikni to'liq namoyon bo'lishi hamda ko'payish jarayonlarining barqarorligini aks ettiradi.

5. Senopopulyatsiyalarning 30 % da vitalitetning "c" sinfiga mansub individlar ustunlik qiladi va asosan qurg'oqchil yoki payhonlangan yashash muhitlariga to'g'ri keladi. Bunday populyatsiyalar qayta tiklangan va nomuvozanat tipning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Quyi vitalitetli individlar ulushining ortishi populyatsiyaning funksional yadrosi zaiflashganini hamda regulyatsiya mexanizmlarining samaradorligi pasayganini ko'rsatadi. Vitalitet indeksi (0,77–0,91) va gullab yashnayotgan tip indeksining (0,27–0,31) past qiymati, biomassa hamda generativ mahsuldorlikning kamayishini ko'rsatadi va populyatsiyada regressiv tendensiyalar rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

6. O'rganilgan turlar populyatsion strategiyaning (Ramenkiy–Graym) turli tiplarini namoyon qiladi. *A. tauschii* ruderal (R-strateg) sifatida qisqa ontogenez va yuqori kolonizatsiya tezligi tufayli suksessiyaning dastlabki bosqichlarida payhonlangan fitotsenozlarga kirib boradi. *A. crassa* raqobat–ruderal (C–R) strategiyani namoyon qilib, antropogen bosim mavjud bo'lgan agroekotizimlarda barqaror rivojlanadi. *A. cylindrica* R–S strategiyasini o'zida namoyon qilib, ruderal xususiyatlarni stressga chidamlilik bilan uyg'unlashtiradi. *A. triuncialis* keng ekologik diapazonga ega bo'lib, aralash C–S–R strategiyani namoyon qiladi. *A. juvenalis* C-tipiga yaqin, biroq S va R komponentlari bilan boyitilgan moslashuvchan strategiya tipi bilan tavsiflanadi.

7. *A. cylindrica* yuqori seleksion potensialga ega tetraploid ($2n=4x=28$) tur bo'lib, morfologik jihatdan nisbatan simmetrik kariotip hisoblanadi. Metafaza bosqichida xromosomalar uzunligi va yelka indeksi bo'yicha aniq farqlanadi. Kariotipdagi 14 juft xromosomaning 10 tasi submetatsentrik, 4 tasi metatsentrik bo'lib, subtelotsentrik xromosomalar aniqlanmadi. Mazkur xususiyatlar turning genetik barqarorligini tasdiqlaydi.

8. *A. juvenalis* ning Markaziy Osiyodagi potensial areali ekologik jihatdan cheklangan va mintaqa hududining atigi 4,98 % ini tashkil etadi. Turning ekologik nishasi yarim qurg'oqchil o'rta tog' hududlar bilan bevosita bog'liq. Tur arealining tabiiy fragmentatsiyasi va tor ekologik diapazoni, uning iqlim o'zgarishlariga yuqori darajada sezgirligini ko'rsatadi. Turning yashovchanligi va reproduktiv muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillar sovuq chorakning o'rtacha harorati, yillik harorat amplitudasi, relyef qiyaligi va balandlik kabi bioiqlim o'zgaruvchilari hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/2025.27.12. В.23.01.М ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ**

ИНСТИТУТ БОТАНИКИ

МАМАТКАСИМОВ ОДИЛБЕК ТУРАЕВИЧ

**БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВИДОВ РОДА *AEGILOPS* L.
ВО ФЛОРЕ УЗБЕКИСТАНА**

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3. PhD/B1244.

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.botany.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Абдураимов Озодбек Султанкулович
доктор биологических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Рахимова Ташханим
доктор биологических наук, профессор

Усупбаев Адилет Кыдыкбекович
доктор биологических наук

Ведущая организация:

**Национальный педагогический университет
Узбекистана имени Низами**

Защита диссертации состоится “26” июня 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.05/2025.27.12. B.23.01.M при Институте ботаники (адрес: 100125, город Ташкент, улица Дурмон йули, дом 32. Актальный зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-79-38, e-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрировано за № 89). Адрес: 100125, город Ташкент, улица Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан “8” июня 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 28 от “5” июня 2026 года).



К.Ш. Тожибаев
Председатель Научного
Совета по присуждению ученых
степеней, д.б.н., академик

А.В. Махмудов
Ученый секретарь Научного Совета
по присуждению ученых степеней,
PhD, старший научный сотрудник

Х.Ф. Шомуродов
Председатель Научного Семинара
при Научном Совете по присуждению
ученых степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сохранение биологического разнообразия и обеспечение устойчивости природных экосистем являются актуальной научно-практической проблемой мирового масштаба. В условиях глобального изменения климата и воздействия антропогенных факторов сокращение биоразнообразия, в частности растительных ресурсов, усиливает угрозы продовольственной безопасности. Продовольственная безопасность неразрывно связана с биологическим разнообразием: несмотря на то, что во всем мире для употребления в пищу культивируется более 6000 видов растений, лишь немногие из них занимают важное место в сельскохозяйственном производстве. В связи с этим, выявление ценных хозяйственных и экономически значимых видов, особенно кормовых растений, произрастающих в естественных условиях, а также разработка научно обоснованных мер по их охране, приобретают важное научно-практическое значение.

На фоне сокращения глобального биоразнообразия и демографического роста наблюдается повышение потребности человечества в продовольствии. По данным ФАО, в 2025 году 864 миллиона человек во всем мире проживают в регионах, охваченных нехваткой продовольствия и голодом (ФАО, 2025). В удовлетворении продовольственных нужд дикорастущие злаки, в частности виды рода *Aegilops* L. (Poaceae), рассматриваются как важнейшие объекты исследований в области селекции и сохранения биоразнообразия благодаря их прямой генетической связи с происхождением пшеницы. К настоящему времени создано более 10 000 сортов пшеницы, 67 % из которых были разработаны на основе генетических ресурсов видов *Aegilops*. Вместе с тем, представители данного рода сохраняют около 25 % (более 75 генов) общих генов, связанных с устойчивостью к стрессовым факторам у зерновых культур. В таких условиях важное значение приобретает сохранение биоразнообразия, а также создание сортов на основе высокопродуктивных дикорастущих растений, устойчивых к засухе и вредителям. В связи с этим, выявление биоэкологических особенностей видов рода *Aegilops*, произрастающих во флоре республики, и изучение состояния их природных популяций является актуальной научно-практической задачей в контексте обеспечения продовольственной безопасности и выведения новых сортов.

На сегодняшний день в республике достигнуты определенные успехи в области сохранения биоразнообразия растительного мира. В связи с этим разработаны меры по охране видов растений, обладающих значительным экономическим потенциалом. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»¹ определены важные задачи по «выведению сотрудничества в Центральной Азии в области экологии, предотвращения загрязнения окружающей среды и охраны природы на новый уровень».

